

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Muratov Abdulaziz Uktamovich	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	
KO'P KVARTIRALI UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA PROFESSIONAL XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	108
Rahimov Qodir Ergashevich	
НИЗКОУГЛЕРОДНАЯ ЭНЕРГЕТИКА КАК НАПРАВЛЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА	115
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING MOHIYATI VA ULARNING PRINSIPLARI	124
Ubaydullayev Muxammadjon, Akbarov Diyorbek	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MEHMONXONA XIZMATLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING IQTISODIY AFZALLIKLARI.....	128
Raxmonova Nigina Anvarovna	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA	132
Farida Nishanova	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	137
Inobatov Abror Boshlarovich	
REAL SEKTORNING INSTITUTSIONAL TARKIBI VA TRANSFORMATSIYA TENDENSIYALARI.....	144
Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
ОБЕСПЕЧЕНИЕ РОСТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФИРМЕННЫХ МАГАЗИНОВ «SAG EXPRESS»)	151
Мусаева Шоира Азимовна	
O'ZBEKISTONDA YALPI ICHKI MAHSULOT DINAMIKASINING ICHKI ISTE'MOLGA TA'SIRI	161
Djumayev Zayniddin Axmedovich	
O'ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA KICHIK BIZNES O'RNINI OSHIRISHNING STATISTIK USULLARDAGI TAHLILI.....	166
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLARNI REAL VAQT REJIMIDA VIZUALIZATSIYA QILISH UCHUN ADAPTIVE M4 GEOMETRIK-PERSEPTUAL AGREGATSIYA ALGORITMI.....	170
Nuraliyev Faxriddin, Hotamov Farhod, Muxamedjonova Zuxra	
АЛГОРИТМ ОПТИМИЗАЦИИ ПРОПУСКНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВЕТВЛЁННЫХ ПАССИВНЫХ ОПТИЧЕСКИХ СЕТЯХ (PON).....	175
Киямов Рахматулло Рузиевич	
MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI ORQALI HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH.....	180
Xolmurotova Diyoraxon, Xoliyorova Shoxista	
OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI	184
Bazarov Nazirjon, Normurodov Alibek	
O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA UNI BARTARAF ETISHDA TADBIRKORLIKNING ROLI: IQTISODIY TAHLIL VA TENDENSIYALAR.....	190
Uzakov Sh. Sh.	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	196
Raximov Faxriddin Shavkatovich	



OZIQ-OVQAT XAVSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT STRATEGIK ZAXIRALARINING O'RNINI

Bazarov Nazirjon Sobirovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrası dotsenti v.b. i.f.n.

E-mail: nazirjon.bazarov@mail.ru

Normurodov Alibek Anvar o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrası katta o'qituvchisi

E-mail: a.normurodov@tiff.uz

Annotatsiya: Har qanday mamlakatning davlat zaxiralari ushbu mamlakatning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi hamda milliy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Davlat zaxiralari strategik va safarbarlik ahamiyatiga ega bo'lgan moddiy boyliklar bilan o'z vaqtida, yetarli miqdorda va belgilangan sifat ko'rsatkichlari asosida ta'minlashni nazarda tutadi. Davlat zaxiralari strategik yo'nalishlaridan biri mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'lib, u aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, bozor barqarorligini saqlash hamda favqulodda vaziyatlarda ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, davlat strategik zaxiralari, iqtisodiy mustaqillik, oziq-ovqat mustaqilligi, don mustaqilligi, oziq-ovqat dasturi, narxlar tebranishi, Global Hunger Index, Global Food Security Index.

Аннотация: Государственные резервы любой страны являются важным инструментом обеспечения её экономической и политической независимости, а также национальной безопасности. Они предусматривают своевременное и достаточное обеспечение стратегическими и мобилизационными материальными ресурсами, соответствующими установленным требованиям качества. Одним из ключевых направлений государственных резервов является обеспечение продовольственной безопасности страны, включая стабильное снабжение населения продовольствием, поддержание устойчивости внутреннего рынка и удовлетворение потребностей в чрезвычайных ситуациях.

Ключевые слова: экономическая безопасность, продовольственная безопасность, государственные стратегические резервы, экономическая независимость, продовольственная независимость, зерновая независимость, продовольственная программа, колебания цен, Global Hunger Index, Global Food Security Index.

Abstract: State reserves of any country serve as an essential mechanism for ensuring economic and political independence as well as national security. They are intended to provide timely and sufficient supplies of strategic and mobilization resources that meet established quality standards. One of the key strategic functions of state reserves is to ensure national food security by maintaining a stable supply of food products, supporting market stability, and meeting public needs during emergencies and crisis situations.

Keywords: economic security, food security, state strategic reserves, economic independence, food independence, grain independence, food program, price fluctuations, Global Hunger Index, Global Food Security Index.

KIRISH

Bugungi kundagi global iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, mamlakatlar, mintaqalar va jahonda ro'y berayotgan geosiyosiy ziddiyatlar hamda tabiiy ofatlarning ortib borishi, bozorda mahsulotlar taqchilligi, narxlarning keskin tebranishlari aholini kafolatlangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash masalasidagi muammolarning yanada ortishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatlar aynan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishini va uni amaliyotga joriy etish orqali soha barqarorligini ta'minlashni talab etadi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mavzusidagi ilmiy ishlarda davlat strategik zaxiralari shunchaki favqulodda vaziyatlarda foydalanish va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan oziq-ovqat jamg'armasi emas, balki



mamlakat harbiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim vosita sifatida qaralishi, tinchlik davrlarida bozorda yuzaga keladigan narxlarning salbiy tebranishlarining oldini oluvchi, taqchillikni kamaytiruvchi, oziq-ovqat importiga qaramlikni kamaytiruvchi, agrosanoat majmuini rag'batlantiruvchi, budget mablag'lari samaradorligini oshiruvchi va boshqa asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlovchi vosita sifatida qaralishi maqsadga muvofiq sanaladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borilishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammolar bo'yicha respublikamizda asosan iqtisodchi olimlar, shuningdek, agrar soha va milliy xavfsizlik yo'nalishi tadqiqotchilari tomonidan o'rganishlar olib borilgan. Jumladan,

Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgazyeva S.Sh.lar muallifligidagi hamda Aliyev Y. muallifligidagi "Iqtisodiy xavfsizlik" darsliklarida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, darajalari, muammolari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining ahamiyati, vazifalari, mexanizmlari, chora-tadbirlari, oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari va boshqalar keng yoritib berilgan.

Babayev I. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda mamlakat qonunchilik normalariga baho berilib, oziq-ovqat zaxirasini shakllantirish uchun zarur bo'lgan valyuta resurslari zaxiralarini yaratishga e'tibor qaratilgan. Ismailova M. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Xitoy Xalq Respublikasi modelini asos qilish mumkinligi qayd qilingan. Xoliqov N. va Axmedova O.lar tomonidan olib borilgan tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Lekin oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlat strategik zaxirasi sifatida saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratilmagan.

Mazkur maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlat strategik zaxiralarining ahamiyati, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi iqtisodiy mexanizmlari hamda sohani yanada takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida bu sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga doir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Ya'ni, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa don mustaqilligiga erishish strategik maqsad qilib olindi. 1990-yillar boshida qator normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan:

"Yer to'g'risida"gi Qonun (1990-yil 20-iyun, 97-XII-son) va "Dehqon (fermer) xo'jaligi to'g'risida"gi Qonun (1992-yil 9-oktabr) qabul qilinishi yer munosabatlarini milliy manfaatlar asosida boshqarish va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shaxsiy va oilaviy xo'jaliklarga mustaqil faoliyat yuritish, yer ijarasi asosida don ekinlarini yetishtirish huquqini berdi (keyinchalik ushbu qonun hujjatlari yangi tahrirda tasdiqlandi). Shunday bo'lsa-da, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz don importiga qaram davlat sifatida juda og'ir damlarni boshidan o'tkazdi.

"O'zbekistonning o'z oziq-ovqat dasturiga ega bo'lishi zarur" g'oyasi asosida davlat dasturlari (1993–1995-yillar) ishlab chiqildi. Shuningdek, Respublika budjeti mablag'lari hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining uch kunlik zaxiralarini yaratildi (keyinchalik tugatildi, 2010–2012-yy.).

"O'zbekiston Respublikasida g'allachilikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1995-yil 24-mart) Prezident Farmonining qabul qilinishi bilan g'alla yetishtiruvchi xo'jaliklarga imtiyozli kreditlar berish, urug'chilik, texnika va yoqilg'i ta'minotini yaxshilash, don mustaqilligiga erishish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu davrga kelib, mamlakatda sug'urta fondi va davlat zaxirasining bug'doy donlari jamg'arilishi boshlandi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Oziq-ovqat dasturi" (1995–1998-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi) tasdiqlanib, mamlakatning o'z g'allasiga tayanish siyosatini mustahkamladi. Natijada 1996–1998-yillarga kelib mamlakat don importidan qisman mustaqil bo'la boshladi. Shuningdek, sug'urta fondi va davlat zaxirasi bug'doy donining hajmi oshirib borildi va mamlakatimiz aholisini uzoq davrda don mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyati yaratildi.

Keyinchalik "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonun (1998-yil) qabul qilinib, fermerlikni rivojlantirish orqali don yetishtirishni yanada kengaytirishga zamin yaratdi (qonun 2004-yilda yangi tahrirda qabul qilindi).

Qishloq xo'jaligini isloh qilish to'g'risidagi qarorlar (1996–2000-yillar) yer va suv resurslarini samarali

boshqarish, paxtachilikdan g'allachilikka o'tish jarayonini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Natijada mamlakatimiz 2000-yildan boshlab don eksport qiluvchi davlat sifatida maydonga chiqdi. Bu davrda davlat zaxirasi va sug'urta fondi bug'doy donining saqlanishi va jamg'arilishi bo'yicha qonuniy asoslar yaratildi.

03.02.2025-yildagi O'RQ-1023-sonli "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi sohani boshqarishda yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qonunning 4-moddasiga ko'ra, "Oziq-ovqat xavfsizligi – aholining sog'lom hamda faol hayot kechirishi uchun ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq va uzluksiz ta'minlanishi"[1] deb ta'riflanadi.

Qonun bilan O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi vakolatli davlat organi etib Qishloq xo'jaligi vazirligi belgilangan bo'lsa, sohadagi faoliyatni amalga oshiruvchi organlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari[1] belgilangan.

Qonunda oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi asosiy prinsiplar sanab o'tilib, yuqorida qayd qilib o'tilgan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'riladigan choralar belgilab qo'yilgan. Ushbu choralarga "davlat zaxirasini yaratish, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosining aylanma zaxirasini yaratish, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki undan olib chiqishni tartibga solish, ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini aholi yillik ehtiyojlarining kamida sakson foizi miqdorida bo'lishini ta'minlash"[1] masalalari kiritilgan.

Qonunga ko'ra, davlat zaxirasi – davlat moddiy zaxirasining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan, saqlanadigan hamda kamayishiga yo'l qo'yilmaydigan ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat bo'lgan qismi[1] bo'lib, ushbu zaxira bilan tinchlik davrida davlat ehtiyojlaridan ortgan qismini belgilangan tartibda sifatli saqlashni ta'minlash maqsadida mamlakat aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, aholining xavfsiz ovqatlanish ratsionining asosini tashkil etish, oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqarorligini ta'minlash, mamlakatning butun hududida yoki muayyan mintaqasida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligi holatining oldini olish, bozorda narxlarning keskin tebranishiga yo'l qo'ymaslik hamda insonning fiziologik jihatdan oziqlik qimmatiga ega bo'lgan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlat strategik zaxirasi tovar-moddiy boyliklarini shakllantirish va ulardan foydalanishda ilmiy bilishning fundamental metodologiyasi asosida shakllangan bo'lib, induksiya va deduksiya, dialektik birlik, nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligi, taqqoslash va o'xshashlik usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot davomida tizimli yondashuvni qo'llash orqali iqtisodiy-statistik, tuzilmaviy-dinamik tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-sentabrdagi 505-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralarda ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha outsorsing xizmatini ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar hamda ularning tarkibidagi tashkilotlarda ovqatlanishni tashkil etish outsorsing xizmati asosida olib borilishi sohada ovqatlanishni to'g'ri tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish bilan bir qatorda, davlat zaxirasida saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlarini asosan Qurolli Kuchlar tomonidan yangilash maqsadida chiqarilishini hisobga olganda, zaxira sifatida saqlanayotgan mahsulotlarning sifatli saqlanishini ta'minlashga salbiy ta'sir o'tkazishi bilan xarakterlanadi. Bu o'z navbatida ob-havoning noqulay kelishi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar, bozor narxlarining salbiy tebranishi hamda alohida davrlarda ichki bozorni to'yintirish, mamlakat aholisini hamda Qurolli Kuchlarni asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi qondirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qurolli Kuchlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishning davlat strategik zaxirasining oziq-ovqat mahsulotlarini shakllantirish amaliyotiga salbiy ta'sirining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish birinchi galdagi vazifa etib belgilanishi lozim. Bu tadbirlar outsorsierlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning aynan strategik zaxirada saqlanayotgan mahsulotlar turlari bo'yicha to'la hajmda qoplab olinishini nazarda tutishi kerak. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-sentabrdagi 505-sonli "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralarda ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha outsorsing xizmatini ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga, ushbu qaror asosida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning qonunchilik hujjatlariga hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar bilan outsorsierlar o'rtasida rasmiylashtiriladigan shartnomaviy hujjatlarga tegishli normalar kiritilishi shart.

Welthungerhilfe (Germaniya) va Concern Worldwide (Irlandiya) xalqaro tashkilotlari tomonidan AQShning



IFPRI (Xalqaro oziq-ovqat siyosati tadqiqot instituti) hamkorligida BMTning FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), UNICEF hamda Jahon bankining rasmiy ma'lumotlari asosida har yili tayyorlanadigan va e'lon qilinadigan Global ochlik indeksi (GHI) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi Belarus, Estoniya, Latviya, Litva, Rossiya, Qozog'iston, Armaniston va O'zbekiston 1–25-o'rinlarni egallagan va ochlik darajasi juda past bo'lgan (1-jadval).

1-jadval

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlarining **Global ochlik indeksi ko'rsatkichlari**

Davlatlar	2000-yil	2008-yil	2016-yil	2025-yil	2025-yildagi o'rni va darajasi
Belarus	<5	<5	<5	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Estoniya	<5	<5	<5	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Latviya	5,3	<5	<5	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Litva	<5	<5	<5	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Rossiya	10,4	6,8	<5	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Qozog'iston	12,0	10,2	5,7	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Armaniston	19,3	11,6	6,4	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
O'zbekiston	24,2	15,4	8,3	<5	1-25-o'rinlar (juda past)
Moldova	18,1	15,0	5,8	5,1	26-o'rin (past)
Ozərbayjon	25,2	14,1	8,1	5,6	29-o'rin (past)
Qirg'iziston	18,4	12,2	8,9	8,0	43-o'rin (past)
Turkmaniston	19,9	14,3	10,2	9,9	50-o'rin (past)
Ukraina	12,8	10,0	9,7	10,4	55-o'rin (o'rta/mo'tadil)
Tojikiston	39,3	26,9	15,3	12,8	63-o'rin (o'rta/mo'tadil)

Manbaa: Global ochlik indeksi (GHI) ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Moldova 26-o'rinni, Ozarbayjon 29-o'rinni, Qirg'iziston 43-o'rinni va Turkmaniston 50-o'rinni egallab, ochlik darajasi past bo'lgan, Ukraina 55-o'rinni va Tojikiston 63-o'rinni egallab, ochlik darajasi o'rta/mo'tadil darajada bo'lgan. Global ochlik indeksi ma'lumotlari darajasining past bo'lishi mamlakatda ochlik darajasi past ekanligini bildiradi. Ochlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga ochlikni tugatish uchun rivojlangan mamlakatlardan yordamlar berib boriladi.

Global ochlik indeksi reytingiga AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropa davlatlari, Yaponiya, Avstraliya kabi dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari kiritilmaydi. Bu davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligi holati Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (Global Food Security Index) doirasida baholab boriladi. Bu indeksda mamlakatlardagi oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, xavfsizligi, miqdoriy va moliyaviy ta'minlanganligi va boshqalar hisobga olinadi.

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlarida oziq-ovqat xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanganligini, iqtisodiyoti past rivojlangan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi darajasi ham past ekanligini ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi reytingida dunyoning top 15 ta eng yuqori va eng past ko'rsatkichlarga ega mamlakatlar

Eng yuqori top 10 ta davlatlar	O'рни/ ko'rsatkichi	Eng past top 10 ta davlatlar	O'рни/ ko'rsatkichi
Finlandiya	1/83,7	Gvineya	99/45,1
Irelandiya	2/81,7	Efiopiya	100/44,5
Norvegiya	3/80,5	Angola	101/43,7
Fransiya	4/80,2	Zambiya	102/43,5
Niderlandiya	5/80,1	Chad	103/43,2
Yaponiya	6/79,5	Kongo (Dem.Rep.)	104/43,0
Kanada	7/79,1	Sudan	105/42,8
Shvetsiya	7/79,1	Venezuela	106/42,6
Buyuk britaniya	9/78,8	Nigeriya	107/42,0
Portugaliya	10/78,7	Burundi	108/40,6
Shveysariya	11/78,2	Madagaskar	108/40,6
Avstria	12/78,1	Sierra Leone	110/40,5
Amerika Qo'shma Shtatlari	13/78,0	Yaman	111/40,1
Daniya	14/77,8	Gaiti	112/38,5
Yangi Zelandiya	14/77,8	Suriya	113/36,3

Manbaa: Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksidagi reytingda 32–75-o'rinlarni egallagan. Bu reytingda O'zbekiston 57,5 ball ko'rsatkichi bilan 73-o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkichlar mos ravishda 2014-yilda 46,0 va 73, 2018-yilda 45,9 va 80, 2019-yilda 59,0 va 71 bo'lgan (3-jadval).

3-jadval

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarining **Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi** reytingi ko'rsatkichlari

Davlatlar	2014-yil o'rin/ ball	2018-yil o'rin/ ball	2019-yil o'rin/ ball	2022-yil o'rin/ ball
Qozog'iston	57/53,3	57/57,7	48/67,3	32/72,1
Rossiya	40/62,7	42/67,0	42/69,7	43/69,1
Belarus	47/60,8	44/65,7	36/70,9	55/64,5
Ozarbayjon	62/50,3	56/58,2	53/64,8	66/59,8
Ukraina	52/56,4	63/55,7	76/57,1	71/57,9
O'zbekiston	73/46,0	80/45,9	71/59,0	73/57,5
Tojikiston	81/38,7	91/40,7	93/49,0	75/56,7

Manbaa: Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Mamlakat Qurolli Kuchlari tomonidan autsorserlik xizmatlarini tashkil etishda davlat strategik zaxirasining oziq-ovqat mahsulotlarini to'la hajmda qamrab olinishi mamlakatimizning Global ochlik indeksi va Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga zamin yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarga ko'ra hamda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib, davlat strategik zaxirasida saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini oshirish, ularni to'plash, yangilash va almashtirishni mamlakat Qurolli Kuchlarini ovqatlantirish va autsorserlarning ehtiyojlari doirasida amalga oshirish, ya'ni strategik oziq-ovqat zaxiralarini shakllantirish samaradorligini oshirishni yangi bosqichga ko'tarish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yuqori darajaga olib chiqishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan:

favqulodda holatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini yuqori darajada ta'minlash imkoniyati yaratiladi;

iste'mol bozorida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining tebranishini oldini olish imkoniyati yaxshilanadi;

bozorda yuzaga kelgan oziq-ovqat taqchilligining oldini olish uchun asosiy manba sifatida foydalanish imkoniyati yaratiladi;

favqulodda holatlarda, Qurolli Kuchlarni ta'minlashda, bozorda narxlar tebranishining oldini olishda, xalqaro gumanitar yordamlar ko'rsatishda sarflanadigan budget mablag'lari xarajatlarining kamayishiga va samaradorligining oshishiga olib keladi;

alohida davrlarda Qurolli Kuchlarning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish imkoniyati yuqori darajada ta'minlanadi;

O'zbekistonning Global ochlik indeksi va Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi reytingi ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga olib keladi;

mamlakatning global maydonda yuz bergan favqulodda holatlarning oldini olishga qaratilgan gumanitar yordamlarini yanada ko'paytirishiga imkoniyat yaratilib, xalqaro maydondagi nufuzini oshirishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-martdagi "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida" O'RB-1023-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-7359113>
2. Welthungerhilfe (Germaniya) va Concern Worldwide (Irlandiya) xalqaro tashkilotlari tomonidan tayyorlanadigan va e'lon qilinadigan Global ochlik indeksi (GHI) ma'lumotlari.
3. Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi (GFSI) ma'lumotlari.
4. Mamatov A.A., Abulqosimov H.P., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.Sh. "Iqtisodiy xavfsizlik" darsligi. Toshkent, 2022.
5. Aliyev Y. "Iqtisodiy xavfsizlik" darsligi. Toshkent, 2023.
6. Babayev I. "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari", "Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan" jurnali, Volume 2, Issue 1, 2024-yil, yanvar, 719–725-b.
7. Ismailova M. "O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda Xitoy Xalq Respublikasi tajribasidan foydalanish imkoniyatlari", Republican Scientific-Practical Conference "Modern Sericulture: Sustainable Development and Scientific Solutions", 2026-yil 25-fevral, 378–383-b.
8. Xoliqov N., Axmedova O. "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy texnologiyalarning roli", Journal of Universal Science Research, 222–226-b.
9. [Lex.uz](https://lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100